

XORIJIY INVESTITSIYANING HUDUD IQTISODIYOTIDAGI O'RNI

*Osiyo xalqaro universiteti
70310102 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi magistranti
Matkurbanov Tavakkal Zaripbayevich*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy investitsiyalar hamda ularning hudud iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit sozlar; Investitsiya, investor, xorijiy investitsiya, taraqqiyot, moliya, strategiya, hujjat, qaror.

Ma'lumki, hozirgi kunda investorlarning mamlakatga yetarlicha huquqiy ishonchi bo'lmasa, xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilishda muammolar yuzaga keladi. Ushbu sohada keyingi besh yilda qilinadigan ishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tog'risida"gi PF-60-son Farmonida ham alohida bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar belgilandi. Ushbu me'yoriy hujjatga ko'ra ushbu yillar davomida O'zbekiston hukumati to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni o'zining asosiy siyosati, ustuvor yo'nalishlaridan biri deb e'lon qildi va yuqori iqtisodiy o'sish hamda investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb etish dinamikasini oshirish orqali mavjud ijtimoiy muammolarni xususan, ishsizlik va qashshoqlik darajasini hal etish mumkinligi belgilab qo'yildi. 2020-yil 27-yanvardan kuchga kirgan "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni mamlakatimizdan mablag'larni cheksiz olib chiqish va investitsiyalarni milliylashtirishdan himoya qilishni kafolatladi. Yana shuni alohida ta'kidlash muhimki, 2019-yil noyabr oyida tashkil etilgan Prezident huzuridagi xorijiy investorlar kengashi xorijiy investorlar, ekspertlar va ishbilarmon doiralar bilan yangi kengaytirilgan muloqot platformasiga aylandi. Tadbirkorlar va investorlar so'nggi yillarda mamlakatimizda davlat xaridlari jarayonida shaffofligining yo'qligi, xususiy mulk huquqlarining yomon himoyalanishi va intellektual mulk huquqlarining yetarli darajada ta'minlanmagani kabi bir qancha fundamental muammolarga duch kelishmoqda. Jumladan, 2020-yilda biznes yuritishning qulayligi reytingida 69,9 ball ko'rsatkichi bilan 69-o'rinni egalladi. Ushbu ko'rsatkich yurtimizda hali investitsiya sohasida qilinishi kerak bo'lган ishlar talaygina ekanligini ko'rsatmoqda. Bu esa bugungi kun iqtisodiyoti uchun ushbu mavzuni ilmiy tadqiq estish dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda yuqori texnologiyali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, hududlarni raqobatdosh va eksportga yo'naltirilgan zamonaviy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o'zlashtirishga yanada faol jalb qilish, ishlab chiqarish, muhandislik kommunikatsiya, yo'l-transport, ijtimoiy infratuzilma va logistika xizmatlarini jadal rivojlantirishni ta'minlash uchun to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kengaytirishning eng muhim omili sifatida erkin iqtisodiy zonalarni yaqqol misol qilib keltirish mumkin Shu bilan birga rivojlanayotgan mamlakatlar sanoati rivojlangan mamlakatlardan farqli o'laroq, asosiy e'tiborni birinchi navbatda sanoatlashtirishning yuqori

darajasiga erishishga qaratadi, ya’ni : sanoatni modernizatsiya qilish, xorijiy kapitalni jalgilish, ishchilarning malakasini oshirish va yangi texnologiyalarni joriy etish. Bunda maxsus (erkin) iqtisodiy zonalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakat iqtisodiyotida investorlar uchun qanchalik qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilsa, xorijiy investitsiyalar oqiminig iqtisodiyotga kirib kelish hajmi oshib boradi hamda chet ellik investorlarning ham mamlakat iqtisodiyotiga sarmoya kiritishga bo’lgan qiziqishi va ishonchi ortadi. Xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish asosida mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishiga erishish mumkin. Umuman olganda xorijiy investitsiyalarning ikki turi farqlanadi. Bular xorijiy portfelli investitsiyalar hamda to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalardir. Xorijiy portfelli investitsiyalar asosan qimmatli qog’ozlarga (aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog’ozlarga) kiritiladigan bo’lsa, to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalar bevosita yangi korxona barpo etish, mavjud korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni hajmini oshirish kabi tadbirkorlik faoliyatiga kiritiladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Erkin iqtisodiy hududlar foliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi farmonida ushbu zonalar faoliyatini yanada rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari belgilab o’tilgan.Ular quyidagilar:

- xorijiy investorlarga mamlakatimiz iqtisodiyotining real sektorlariga investitsiya kiritishi uchun yanada qulay sharoitlar yaratish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar uchun yagona huquqiy rejimni belgilash, soliq va bojxona imtiyozlari, preferensiyalarni bixillashtirish;
- mahalliy mineral-xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlaydigan va yuqori qo’shimcha qiymatga ega raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqaradigan yuqori texnologiyali va mahalliylashtiriladigan zamonaviy korxonalarini tashkil qilish uchun to’g’ridan to’g’ri investitsiyalarni, avvalambor, xorijiy investitsiyalarni faol jalg etish, erkin iqtisodiy zonalarning muayyan sohaga ixtisoslashuvini qo’llab-quvvatlash va ularda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish;
- erkin iqtisodiy zonalarda “yagona darcha” tamoyili asosida barcha turdag'i davlat xizmatlarini ko’rsatishga, jumladan, ruxsat berish tartib-taomillariga bosqichma-bosqich o’tish;
- ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo’l-transport va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish, shuningdek, sifatli logistika xizmatlari ko’rsatish bo‘yicha zamonaviy infratuzilmani shakllantirish;
- oliy, o’rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarida erkin iqtisodiy zonalarning soha kadrlariga bo’lgan hozirgi va istiqboldagi ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularning erkin iqtisodiy zonalarda joylashgan korxonalarda ishlab chiqarish amaliyotini o’tashini nazarda tutgan holda, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni tashkil etish. Ushbu yo’nalishlardan kelib chiqib bosh reja belgilanadi.

Maxsus iqtisodiy hudud xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar, shuningdek, mahalliy korxonalar va fuqarolarning iqtisodiy faoliyatining alohida rejimi qonuniy ravishda o’rnatilgan hududdir. Erkin iqtisodiy hududlar ijtimoiy jadallashtirish uchun yaratilgan iqtisodiy rivojlanish, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikni

rivojlantirish asosida mamlakatimiz tabiiy resurslarini har tomonlama o'zlashtirish, eksport imkoniyatlarini oshirish, sifatli va import o'rmini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan. Keyingi yillarda nafaqat O'zbekistonda balki jahoning boshqa davlatlarida hududlarni tashkil qilish borasida keng ko'lamli ishlar olib borildi. Birgina so'nggi 20 yil ichida dunyoda erkin iqtisodiy zonalar soni 6 baravar oshdi: jumladan 1998 yilda ularning soni 900 ga yaqin bo'lgan bo'lsa, 2018 yilda esa ularning soni 5400 tani tashkil etdi, shulardan 1000 dan ortig'i so'nggi besh yil ichida shakllanganlaridir. Yaqin yillarda yana 500 ga yaqin hudud o'z investorlari uchun eshiklarini ochishi kutilmoqda. Dunyodagi 147 ta (197 ta) davlatlar uchun bunday zonalar qulay vosita, iqtisodiy vaziyatni yaxshi tomonga burish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan mexanizmga aylandi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, milliy iqtisodiyotning yangi sifat holatiga erishuvi uchun iqtisodiy siyosat sohasida yangi mezonlar va maqsadlar joriy etilishi talab qilinadi. Faqat erishilgan yutuqlarni shunchaki mustahkamlash emas, balki iqtisodiy o'sishning yangi sifatini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Фозилчаев, Ш. К., & Хидиров, Н. Ф. (2017). Инвестиция ва лизинг асослари. Ўқув қўлланма. Т.: Молия.
2. N.G'.Karimov, R.X.Xojimatov, J.X.Razzaqov. Investitsiya. O'quv qo'llanma."Iqtisodiyota", T.:2019.75-76 bet.
3. D.G'.G'ozibekov. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari.-T: "Moliya" nashiriyoti,2003.,23-bet.
4. N.X.Haydarov. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalasi. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.,2003.
5. N.G'.Karimov,R.X.Xojimatov,J.X.Razzoqov. Investitsiya. "Iqtisodiyot".-T-2019., O'quv qo'llanma